

**SULAYMON BOQIRG‘ONiy HIKMATLARINING MATNSHUNOSLIK  
TAVSIFI, ILMIY SHARHI VA IYMON MASALASI****D.Fayziyeva,***Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti**Ilmiy rahbar: f.f.n., S.Rafiddinov,*

**Annotatsiya.** Maqolada Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlarining yangi aniqlangan nusxalari ilmiy muomalaga kiritilib, ularning tekstologik-kritik tavsifi beriladi. Topilma matnlarning tarkibiy qatlamlari, variantlanish mexanizmi, o‘qilish farqlari hamda leksik-stilistik ko‘rsatkichlari qiyosiy filologik tahlil asosida aniqlashtiriladi. Hikmatlarning g‘oyaviy-estetik va tasavvufiy semantikasi ilmiy sharh qilinib, atribusiyasi, matn tarixi va geneologik bog‘lanishlarga doir dalillangan xulosalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari Boqirg‘oniy merosining matnshunoslik bazasini kengaytirib, keyingi nashr va ilmiy kommentariylar uchun nazariy-amaliy asos yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Sulaymon Boqirg‘oniy, yangi nusxalar, tekstologiya, matn tanqidi, variantologiya, iymon, Qur‘on masalalari.

**Аннотация.** В статье вводятся в научный оборот новые выявленные списки хикматов Сулеймана Бақыргани и даётся их текстологически-критическая характеристика. На основе сравнительного филологического анализа уточняются структурные слои обнаруженных текстов, механизм их вариантности, различия в прочтениях, а также лексико-стилистические показатели. Идеино-эстетическая и суфийская семантика хикматов получает научное истолкование, выдвигаются аргументированные выводы, касающиеся атрибуции, истории текста и генеалогических связей. Результаты исследования расширяют текстологическую базу наследия Бақыргани и создают теоретико-практическую основу для последующих изданий и научных комментариев.

**Ключевые слова:** Сулейман Бақыргани, новые списки, текстология, критика текста, вариантология, вера, кораническая проблематика.

**Abstract.** This article introduces newly identified copies of Sulaymon Boqirg‘oniy’s hikmats into scholarly circulation and provides their textological and critical description. Based on comparative philological analysis, the structural layers of the discovered texts, the mechanism of their variation, differences in readings, as well as their lexical and stylistic features are clarified. The ideological-aesthetic and Sufi semantics of the hikmats are scientifically interpreted, and well-grounded conclusions are advanced regarding attribution, textual history, and genealogical connections. The results of the study expand the textological basis of Boqirg‘oniy’s heritage and create a theoretical and practical foundation for future editions and scholarly commentaries.

**Keywords:** Sulaymon Boqirg‘oniy, newly identified copies, textology, textual criticism, variantology, faith, Qur‘anic issues.

**Kirish.**

Na xush bu dunyoda iymonu Qur‘on,

Na bo‘lg‘ay dunyoda iymondin ortiq.

Turkiy tasavvufiy adabiyot taraqqiyotida hikmat janri nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki ma‘naviy-ta‘limiy tafakkurning matniy “xotirasi” sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu ma‘noda Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlarining yangi aniqlangan nusxalarini ilmiy muomalaga kiritish, avvalo, manba doirasini kengaytirish, ikkinchidan, mavjud ilmiy nashrlar va sharhlarda ko‘zdan chetda qolgan matniy qatlamlarni aniqlashtirish imkonini beradi. Yangi topilmalarning paydo bo‘lishi tekstologik tekshiruv

tamoyillarini qayta faollashtirib, hikmatlar korpusining variantlanish tizimi hamda matn tarixi bilan bog'liq masalalarni yangicha dalillar asosida yoritishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Qur'oni Karim mazkur tadqiqotning asosiy manbaviy va konseptual poydevorini tashkil etib, undagi iymon, vahiy va hidoyatga oid g'oyalar hikmatlar sharhida markaziy o'rin egallaydi. Najmiddin Komilovning tasavvufga oid asarlarida ilgari surilgan komil inson, nafs tarbiyasi va ma'naviy kamolot haqidagi qarashlar Boqirg'oniy hikmatlarining semantik qatlamini ochishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, Sayfiddin Rafiddinov (Sayfiddin Sayfulloh)ning ilmiy ishlari matn talqini, majoz va haqiqat munosabati hamda tasavvufiy timsollarni sharhlashda metodologik yo'nalish beradi. Umuman, keltirilgan adabiyotlar majmui maqoladagi matnshunoslik va tasavvufiy tahlilni uyg'un holda olib borish imkonini yaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolaning bosh maqsadi – yangi aniqlangan nusxalarni matnshunoslik va manbashunoslik mezonlari asosida tavsiflash, ularning kelib chiqish-uzatish zanjiri (geneologik aloqadorligi) va variantlar tabiatini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, mazmuniy-semantik qatlamni ilmiy sharh orqali izohlashdan iborat. Tadqiqot ob'yekti sifatida hikmatlarning qo'lyozma-toshbosma an'anadagi matnlari, predmet sifatida esa ularning matn tarkibi, o'qilish farqlari, leksik-stilistik ko'rsatkichlari va talqin imkoniyatlari belgilandi. Ish jarayonida tavsifiy-kodikologik kuzatuv, tekstologik qiyos, variantologik tahlil, semantik-kommentariy yondashuv hamda zarur o'rinlarda tarixiy-madaniy kontekstga tayangan interpretatsiya usullari qo'llanildi.

**Tahlillar va natijalar.** Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, yangi aniqlangan nusxalar ilk bor tizimli ravishda filologik muomalaga kiritilib, ularning matniy ishonchliligi, o'qilish muammolari va mavjud korpus bilan munosabati dalillangan tarzda ko'rsatiladi. Shuningdek, ayrim bayt va misralardagi ma'no siljishlari, terminologik qatlam va tasavvufiy timsollar (ramzlar) sharhi asosida hikmatlarning g'oyaviy yo'nalishi hamda muallif uslubiga xos belgilar aniqlashtiriladi. Natijada hikmatlar matnining tarixi, variantlar iyerarxiyasi va keyingi ilmiy nashrlar uchun zarur bo'lgan izoh (kommentariy) mezonlarini taklif etishga qaratilgan konseptual xulosalar shakllantiriladi. Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlarini varaqlaganda uning diqqati ko'proq iymon va Qur'on masalalariga qaratilganini guvohi bo'lamiz. Islom olamida muhim bo'lgan bu ikki jihat shoir she'rlarining asosiy mavzusi va ma'nosiga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Quyida yangi topilgan hikmatlarni ayrimlarini berib, unda shu ikki masalaning borligini aytib, uni sharhlaymiz va o'quvchilar hukmiga havola etamiz. «Rahmatidin ulush berdi ulug' Mavlim, Seni xohlab iymon ato qildi sanga»-deb boshlanuvchi hikmat 19 bayt 38 misradan iborat bo'lib, undagi mazmunni quyidagicha sharhlaymiz mumkin.

Rahmatidin ulush berdi ulug' Mavlim,  
Seni xohlab, iymon ato qildi sanga.

Ushbu bayt mazmuniga ko‘ra, ulug‘ Parvardigor (Mavlo) O‘z rahmatidan bandaga nasiba (ulush) berdi. Bandani sevib, iroda qilib, unga iymon ne‘matini ato etdi. Ya‘ni bu bayt iymonni insonning «mehnati» emas, balki ilohiy inoyat va rahmat natijasi sifatida talqin qiladi. Bu juftlikning markaziy g‘oyasi – rahmat–iymon zanjiri: iymon «ato qilinadigan» ne‘mat sifatida ko‘rsatiladi. Birinchi misra «rahmatidin ulush berdi» deya ilohiy inoyatni taqsimlanadigan, bandaga yetadigan nasiba tarzida tasvirlaydi; ikkinchi misra esa bu inoyatning eng oliy ko‘rinishini aniq nomlaydi: iymon ato qilinishi. Shunday qilib, bayt bandaning maqomi iymon bilan belgilanishini, iymon esa ilohiy iroda bilan nasib etishini ta‘kidlaydi (tasavvufiy ta‘limotlarda bu «tavfiq hamda inoyat» g‘oyasi bilan uyg‘un).

Haq Muhammad Mustafoni rasul izdi,  
Lutf birlan bag‘ishladi Qur‘on sanga.

Keyingi bayt mazmuni shundan iboratki, Haq (Alloh) Muhammad Mustafani O‘z elchisi (rasul) qilib tanladi; so‘ng O‘z lutf-inoyati bilan bandaga Qur‘onni hadya etdi. Ya‘ni bayt vahiy va risolatni ilohiy marhamatning eng oliy ko‘rinishi sifatida talqin qiladi. Bu juft misra ikki pog‘onali ilohiy ne‘mat tizimini beradi: (a) risolat – Payg‘ambarni elchi etib yuborish; (b) vahiy – Qur‘onni nozil qilish (yoki «bag‘ishlash») orqali hidoyatni mukammal shaklda taqdim etish. Shu tariqa bayt iymon va hidoyatning azaliy bir ne‘mat sifatida risolat institutini markazga qo‘yadi: Qur‘on bandaga bevosita «lutf» sifatida in‘om qilinadi, ammo u risolat orqali ma‘lum bo‘ladi.

Qur‘on rahmat, ganji hikmat, durri samini,  
Qur‘on birlan ravshan bo‘ldi ro‘yi zamin,  
Ummat uchun olib emdi Ruhul amin,  
“Faqraru mo tayyassara” – farmon sanga

Bu parchada Qur‘onni bir vaqtning o‘zida rahmat manbai, hikmat xazinasini va nihoyatda qimmatli ma‘naviy javohir sifatida ta‘riflaydi; Qur‘on tufayli “yer yuzi” ma‘nan ravshanlashgani aytiladi. Keyin vahiy ummat manfaatiga nozil bo‘lgani, uni Jibril (a.s.) olib kelgani eslatiladi. Yakunda esa «Qur‘ondan oson kelganicha tilovat qiling» mazmunidagi ilohiy ko‘rsatma- farmon, she‘riy iqtibos sifatida keltirilib, bu buyruq “senga” ya‘ni o‘quvchi – mo‘minga ekanligi ta‘kidlanadi.

Qur‘on yo‘ldin ozmishlarni yo‘lg‘a tortar,  
Qur‘on bilsang izzatu ham hurmat ortar,  
Ovoz birlan o‘qisalar bag‘ir o‘rtar,  
Yo‘lanmagay yuz ming turluk xazlon sanga.

Bu parcha Qur‘onni hidoyat manbai sifatida talqin qilinadi, hamda yo‘ldan adashganlarni yana to‘g‘ri yo‘lga qaytaradi. Qur‘onni anglab (bilib) yashagan odamning izzati va hurmati ortadi. Uni ovoz bilan tilovat qilish esa insonning «bag‘rini» – ya‘ni ichki olamini larzaga solib, qalbida kuchli ta‘sir uyg‘otadi. Natijada mo‘min turli-tuman g‘am-anduhlarga «yo‘lanmaydi», ya‘ni ruhiy sinishlardan asraladi.

Bu dunyoda o‘qu Mavlim kalomini,  
Eshitgaysan borib anda salomini,  
Ujmah ichra berur ne‘mat tamomini,  
Huru qusur, g‘ilmon birlan vildon sanga.

Ushbu parchada mo‘minni dunyoda ilohiy kalomni tilovat qilishga chaqiradi. Kim bu yerda Mavlning kalomini o‘qisa, u oxiratda Allohning salomi va xushxabarini eshitadi. Jannatda esa ne‘matlar to‘la-to‘kis beriladi: hurlar, qasrlar (saroylar), xizmatkor g‘ilmonlar va abadiy yoshlik timsoli bo‘lgan vildonlar bilan siylanish va‘dasi keltiriladi.

Qur‘on birlan qabug‘ini yopquvchi Ul,  
Ma‘siyat nomalarin yuvg‘uvchi Ul,  
“Xayran yarah, sharran yarah” – so‘rg‘uchi Ul,  
Qur‘on ulug‘ mo‘jizadur burhon sanga.

Ushbu to‘rtlikda Qur‘on insonning aybini, gunoh (ma‘siyat) tufayli paydo bo‘lgan «nomalar»ni yuvib ketadigan” poklovchi kuch sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, Qur‘on bandani «yaxshilik va yomonlikning zarracha miqdori ham ko‘rinadigan», ilohiy qonuniyatdan ogoh etib, uni yomonlikdan qaytaruvchi, to‘g‘ri yo‘lga undovchi, dalil – ulug‘ mo‘jiza va burhon (qat‘iy hujjat) ekani ta‘kidlanadi.

Qur‘on o‘qi, farmonini ichka bog‘la,  
Yetsang azob oyatig‘a qo‘rqub yig‘la,  
Ul qo‘rqunchni o‘ti birla yurak dog‘la,  
Izim qilg‘ay ujmo‘h yo‘lin oson sanga.

Bu to‘rtlikda muallif mo‘minni Qur‘on tilovatini ichki intizom va e‘tiqodiy majburiyat darajasiga ko‘tarishga chaqiradi: Qur‘on farmonini qalbga «bog‘lash» kerak. Agar azob (ogohlantiruvchi) oyatlari tilovat qilinsa, banda qo‘rqib yig‘lashi lozim – bu qo‘rquv yurakka ta‘sir qilib, uni «dog‘lash» (ya‘ni hushyorlik va tavbaga undash) vazifasini bajaradi. Natijada Alloh jannat («ujmo‘h») yo‘lini bandaga oson qiladi, degan xulosa chiqadi. Matnning ichki mantiqi “tilovat → xavf-xushu’ → qalbiy o‘zgarish → najot umidi” zanjiriga qurilgan. Bu yerda tilovat oddiy o‘qish emas, balki farmon sifatida talqin qilinadi. “Ichka bog‘la” iborasi esa Qur‘onni qalbda “mahkamlash”, ya‘ni uni e‘tiqod, amal va odatga aylantirish g‘oyasini beradi.

Qur‘on bilmas, yo‘q soninda nangmi bo‘lur?  
Qaro jibin oq ichinda mungmu bo‘lur?  
Bilgan birla, bilmaganlar tengmi bo‘lur?  
Qur‘on o‘qi, nodon sanga quloq tutsin.

Bu to‘rtlikda Qur‘onni bilmaslik insonni qadrsizlantirishi, izzatini tushirishi aytiladi. Bunday holat «nang» (sharmandalik) bilan bog‘lanadi. Ikkinchi misra obrazli qiyos orqali «nomutanosiblik»ni kuchaytiradi (qorong‘i unsur oq muhitda yanada ko‘zga tashlanishi kabi). Ikkinchi qatordagi misrada “Qaro chibin oq ichinda...” degan obraz odatda shuni anglatadi: oq muhit ichida qora nuqta (chivin) darrov ko‘zga tashlanadi – ya‘ni

nomuvofiqlik va ko'zga urilish g'oyasi ilgari suriladi. Matndagi "Bilgan birla bilmaganlar tengmi bo'lur" misrasi mazmunan Qur'ondagi mashhur ritorik savol bilan mutanosib kelyapti. «Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'ladimi?» degan ma'noda.

Yakunda muallif Qur'onni o'qishga undaydi: ilmi tilovat nodonga ham ta'sir qilib, uni quloq tutishga majbur etsin.

Qur'on Mavlim kalomidin bilgil haqqin.

Azob qilmas Mavlim seni ani saqin.

O'granmishing unutsang sen bilgil yaqin.

Sazo bo'lg'ay saqar otliq zindon sanga.

Ushbu to'rtlikda mo'min Qur'onni «Mavloning kalomi»- deb tanib, uning haq ekanini qat'iy bilishi lozimligi aytiladi. Shunda Mavlo bandaga azob qilmaydi, degan tarbiyaviy ogohlantirish beriladi. O'zingni ehtiyot qil, kalomga sodiq bo'l. Agar o'rgangan narsani unutib, undan yuz o'girsang, buning oqibati og'ir: «Saqar» deb atalgan Jahannam zindoni senga munosib jazoga aylanishi mumkin, deya qat'iy xulosa chiqariladi.

Valoh muni rost ayturman Izim haqqi,

Bul Qur'onga o'xshar kitob yo'q ul taqi!

Yiroq bo'lsang tun-u kuni Qur'on o'qi,

Kerak bo'lsa «Firdavs» otlig' bo'ston sanga.

Ushbu misralarda muallif qasam bilan so'zlaydi: «Alloh izni va haqqi uchun rost aytyapman», deya Qur'onning tengsizligini ta'kidlaydi. Bu Qur'onga o'xshash kitob yo'qligini bildirib, kim undan uzoqlashgan bo'lsa ham kecha-kunduz Qur'on tilovatiga qaytishga undaydi. Natijada (tilovat va sadoqat sabab) mo'min uchun «Firdavs» deb atalgan oliy jannat bo'stoni nasib bo'lishi mumkinligi g'oyasi ilgari suriladi.

Haqin bilsang arosatda shafe' bo'lg'ay,

"Zaboniya changoli" din sani yo'lg'ay.

«Bu qulungni yarlaqo!» deb Rabdin qo'lg'ay,

Yarlaqag'ay o'shal kuni Rahmon sanga.

Ushbu misralarda muallif agar sen Qur'onning «haqq» (haqiqat) ekanini chin bilib, unga sodiq tursang, Qiyomat maydonida (arasotda) u senga shafatchi bo'lish haqidagi fikrlarni ilgari suradi. Qur'on seni «do'zax farishtalari» – Zaboniya «changoli» (panjasi) dan seni sug'urib oladi. Qur'on «Bu qulingni yorlaqagin (kechirgin)», deb Parvardigordan iltijo qiladi va o'sha Kunda Rahmon seni avfu mag'firat qiladi.

Orig' yuvnib, obdast olib, o'qu kitob,

Bir harfiga yigirma besh o'mg'il savob.

Alloh desang "labbayka" – ovoz kelgay javob

«Robbiy» desang: "Abdiy" – degay Subhon sanga.

Bu parchada muallif avvalo tilovatning adabini belgilaydi: badan (va kiyim) pok bo'lib, tahorat qilib Qur'on o'qishni tavsiya etadi. Har bir harf uchun savob va'da qilinadi; bandaning «Alloh» deb murojaati javobsiz qolmasligi, «Robbiy!» (Parvardigorim) deb

iltijo qilsa, banda maqomida «abdiy!» («bandam») deb e'tirof topishi poetik-ohangda ifodalanadi. Ya'ni matn Qur'on tilovatini poklik–savob–duoning ijobati zanjiri bilan ruhiy tarbiya vositasiga aylantiradi.

Kechti umrim qishi yozi bo'ldi zavol,  
Yozuqum ko'p, yorlaqag'il yo Zul Jalol,  
G'aribliqda qul Sulaymon o'zum malol,  
Orzu qilg'um, tug'qon yerim – Turkon sanga.

Ushbu oxirgi parchada shoir umrining qishiyu yozi o'tib, hayoti «zavol» (so'nish, kamayish) bosqichiga kirganini aytadi. Gunohi ko'pligini tan olib, ulug' Zotdan kechirim so'raydi. G'ariblikda (yot yurtda) o'zini iztirobga solayotganini bildirib, ko'ngli esa orzu qilgan tug'ilgan yurt – Turkiston tomonga intilayotganini ta'kidlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mazkur tahlilda Sulaymon Boqirg'oniya nisbat berilgan, Qozog'istondagi qo'lyozmalar fondidagi nusxa asosida ko'chirilgan yangi hikmat parchalari mazmuniy va matniy jihatdan sharhlendi. Parchalarning umumiy mazmuni Qur'onni rahmat, hikmat va burhon sifatida ulug'lash, tilovat adabi (poklik, tahorat, davomiy o'qish), hamda oxirat motivlari (shafolat, mag'firat, Saqar – Jahannam, Firdavs) orqali didaktik-ta'limiy maqsadni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga ruh–nafs ziddiyati, «yigitlik quvvati ketmasidan avval tavba» g'oyasi, vatan sog'inchi va g'ariblik motivi hikmatlarning tarbiyaviy-estetik qatlamini yanada boyitadi. Matnshunoslik nuqtai nazaridan ayrim birlik va iboralarda (masalan, shubhali o'qilishlar, fonetik-imlo tebranishlari, Qur'on oyatlariga ishoralarning qisqargan/adaptatsiyalangan ko'rinishlari) variant ehtimoli mavjudligi aniqlandi; bular ilmiy muomalada asosiy matnni saqlagan holda izoh (snoska) va matn tanqidi apparati orqali ehtiyotkorlik bilan rasmiylashtirilishi lozim. Manbashunoslik jihatidan fond/inventar rekvizitlari hozircha aniqlanmagan bo'lsada, ushbu ko'chirma matnlar yangi topilma sifatida Boqirg'oni hikmatlarining qamrovini kengaytiradi. Keyingi bosqichda yanada kengroq tavsif, nusxalararo qiyos va geneologik bog'lanishlarni tekshirish hikmatlarning ilmiy nashrini yanada ishonchli qilish uchun zarur metodik shart sifatida belgilandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima (tarjima va izohlar muallifi: Alouddin Mansur). – Toshkent: Cho'lpon, 1992.
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009. – 448 b.
3. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: «Yozuvchi», 1996. – 272 b.
4. Sayfiddin Rafiddinov (Sayfiddin Sayfulloh). Majoz va haqiqat. – Toshkent: «Fan», 1995. – 160 b.
5. Sayfiddin Sayfulloh. Buyuklar halqasi. – Toshkent: «Noshirlik yog'dusi», 2011. – 104 b.
6. Sayfiddin Sayfulloh. Fatvo va taqvo kitobi. – Toshkent: «Fan», 2005. – 52 b.
7. Sayfiddin Safulloh, Rahimbek Xolbekov. Tabarruk siymo. – Toshkent: «Muharrir», 2009. – 64 b.
8. Sayfiddin Sayfulloh. Ruboiyoti hazrati Naqshband. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 20 b.